



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

SUPPORT SCIENCE

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

ISSN 2181-2788
Oriental Journal of History, Politics and Law
2022 VOL. 2 Iss. 18.05.2022

TURKEY'S ROLE IN RESOLVING POLITICAL INSTABILITY IN NORTH AFRICA (LIBYA EXAMPLE)

A.B. Mamadjonov

Lecturer

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

D. Sadikova

Master's student

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: baxtiyorovich91@bk.ru*

ABOUT ARTICLE

Key words: The Arab Spring, Muammar Gaddafi, the Libyan crisis, Turkey's foreign strategy, Ahmet Davutoglu, Recep Tayyip Erdogan, the Eastern Mediterranean, energy policy.

Received: 14.05.22

Accepted: 16.05.22

Published: 18.05.22

Abstract: This study examines Turkey's relations with the Arab countries of North Africa, in particular its relations with Libya, and its relations with Libya after the Arab Spring civil war. Instability in the region and conflicts in the Eastern Mediterranean have come to the fore in recent years. In this context, some considerations have been made on the role of the Republic of Turkey in resolving the internal political instability following the Libyan crisis.

TURKIYANING SHIMOLIY AFRIKADAGI SIYOSIY BEQARORLIKNI HAL ETISHDAGI ISHTIROKI (LIVIYA MISOLIDA)

A.B. Mamadjonov

O'qituvchi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universitet
Toshkent, O'zbekiston*

D. Sadikova

Magistratura talabasi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

E-mail: baxtiyorovich91@bk.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Arab bahori, Muammar

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida

Kaddafiy, Liviya inqirozi, Turkiya tashqi strategiyasi, Ahmet Dovut o'g'lu, Rajab Tayyip Erdo'gan, Sharqiy O'rtayer dengizi, energetika siyosati.

Turkiyaning Shimoliy Afrika arab davlatlari bilan aloqalari, xususan Liviya bilan munosabatlari, Arab bahori ortidan kelib chiqqan Liviyadagi fuqarolik urushlaridan keyingi munosabatlari tadqiq etilgan. Mintaqadagi beqarorlik va Sharqiy O'rtayer dengizi hududidagi ziddiyatlar oxirgi yillarda e'tibor markaziga aylandi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Liviya inqirozidan so'ngi ichki siyosiy beqarorliklarni hal etishda Turkiya Respublikasining tutgan o'rni borasidagi ba'zi mulohazalar tahlil qilingan.

РОЛЬ ТУРЦИИ В УРЕГУЛИРОВАНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ НЕСТАБИЛЬНОСТИ В СЕВЕРНОЙ АФРИКЕ (ПРИМЕР ЛИВИИ)

А.Б. Мамаджонов

Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Д. Садикова

Студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: baxtiyorovich91@bk.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Арабская весна, Муаммар Каддафи, ливийский кризис, внешняя стратегия Турции, Ахмет Давутоглу, Реджеп Тайип Эрдоган, Восточное Средиземноморье, энергетическая политика.

Аннотация: В этом исследовании рассматриваются отношения Турции с арабскими странами Северной Африки, в частности ее отношения с Ливией, а также ее отношения с Ливией после «арабской весны». В последние годы на первый план вышли нестабильность в регионе и конфликты в Восточном Средиземноморье. В этом контексте были сделаны некоторые соображения о роли Турецкой Республики в урегулировании внутриполитической нестабильности после ливийского кризиса.

KIRISH

Shimoliy Afrika hududida joylashgan turli etnik, siyosiy, diniy va madaniy tuzilishga ega arab davlatlarida nizolarini hal etish qiyin bo'lgan masalalardan biri bo'lib, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin bu yerlar keskinlik bir muncha ortgan mintaqaga aylandi. Bu esa o'z navbatida, mintaqadagi jarayon ishtirokchilarning tarixiy, diniy, etnik va hududiy nizolari xavfsizlik bilan bog'liq muammolarga ta'sir ko'rsatdi. Davlat suverenetetini qo'lga kiritgan so'ng mintqa hududida joylashgan arab davlatlarida siyosiy jarayonlar hamda yangi davlatchilik

qurish masalalari asosiy kun tartibiga ko‘tarildi. XX asrning 60-70-yillariga kelib dastlab tashkil etilgan monarxiya boshqaruvi o‘rniga respublika va konstitutsion monarxiya boshqaruvi qaror topa boshladi bu jarayonlar ko‘pchilik davlatlarda inqilobiy yo‘l bilan amalga oshirilishi davlatlarning keyingi siyosiy boshqaruv yo‘lini ham belgilab berdi. Xususan, Misrda monarxiya ag’darilib, Respublika tashkil etildi va keyinchalik avtoritar hokimiyat nazorati amalga oshirila boshlandi; Jazoir, Tunis, Marokash kabi davlatlarda ham shunga o‘xhash jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Shu qatorda Liviya davlatida ham 1969-yilga kelib harbiylar yo‘lboshchisi sanalgan Muammar Kaddafiy harbiy to‘ntarish amalga oshirdi. Mamlakat Liviya Arab Jamhariyasi deb nomlanib, boshqaruvda sotsializmning o‘ziga xos arabcha na’munasi ishlab chiqildi.

Arab dunyosida boshlangan avtoritar hokimiyatga qarshi kurashlar 2010 yilga kelib butun Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi mamlakatlarni qamrab oldi. Shu yilning dekabrida Tunisda Muhammad Buaziz ismli meva sotuvchi chakana savdogar hokimiyatdan norozilik belgisi sifatida o‘ziga o‘t qo‘yishi natijasida “Arab bahori” deb nomlangan namoyishlar zanjiri boshlanib ketdi. Ushbu namoyishlar qonli tus olib, Shimoliy Afrikadagi Tunis, Misr va Liviya kabi arab davlatlarida siyosiy hokimiyatning o‘zgarishiga sabab bo’ldi. Xalq namoyishlari shunchalik shiddatli tusga kirdiki, natijada Tunisda 23 yil hokimiyat tepasida turgan Zaynal Abidin bin Ali chet elga qochib ketishga majbur bo’ldi. Misrning 30 yillik prezidenti Husni Muborak ham xalq namoyishidan keyin 2011 yil 11 fevral kuni o‘z iste’fосини e’lon qildi. [1] Qisqa vaqt ichida xalq namoyishlari Liviyadaham hokimiyat ag’darilishiga olib keldi, qariyb 40 yil hukmronlik qilgan general Muammar Kaddafiy isyonchilar tomonidan qatl etildi. Bu holat siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirishda qatnashgan parda ortidagi ba’zi ichki va tashqi kuchlarning mintaqa hududida nazoratni o‘z qo‘liga olishiga imkon yaratib berdi. Ushbu siyosiy jarayonlarga ta’sir etuvchi tashqi kuchlar omilini tahlil qilish jarayonida Turkiya Respublikasining Liviyadagi siyosiy beqaror vaziyatni hal etishdagi o‘rni va rolini tadqiq etish asoslidir.

Turkiyaning bugungi kunda jahon miqyosida ta’siri va obro’si ortib borishini uning iqtisodiy salohiyati va faol tashqi siyosati bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga Turkiya tashqi siyosati ikki asosiy oqim vakillarining qarashlari to‘qnash kelganligini kuzatish mumkin: kamolchilar va yangi usmoniyalar vakillari. Har bir davlat tashqi siyosati muayyan g’oyalar va qarashlar ta’siri ostida bo‘ladi. So‘ngi paytlargacha panturkchilik, kemalchilik, neosmanizm kabi g’oyalar kuchli doktrina bo‘lib kelgan. Garchi zamонавиy tashqi siyosiy doktrina ularning hech biri bilan bog’liq bo‘lmасада, o‘sha g’oyalar milliy tashqi siyosatning shakllanishiga ma’lum bir ta’sirini o‘takazadi. Neopanturkizm ko‘p jihatdan neosmanizm bilan o‘xshashdir. Neosmanizm – bu Turkiyaning sobiq mustamlaka mamlakatlariga o‘z ta’sirini qayta tiklashini targ’ib etuvchi

doktrina. Ular kelib chiqishi, geografiyasi, strategik maqsadlarida farqlanadi. Panturkchilik – neopanturkizm chetdan kirib kelgan bo‘lsa, neousmoniylik chinakam turkiy g‘oyadir. Neopanturkizm ko‘proq mustamlaka hududlarini (Bolqon yarim oroli, Qrim, Kipr, Rodos, Kavkaz, Levant, Iraq, Eronning bir qismi, Jazoir, Liviya, Misr) qaytarib olishga yo‘naltirilgan g‘oyadir.[2]

Ko‘rishimiz mumkinki, Shimoliy Afrika arab davlatlariga nisbatan Turkiya qiziqishlari susaygani yo‘q shuningdek, bugungi kunda xalqaro munosabatlarning ayrim keskinlik sohalari energiya resurslari bilan bog’liqligi ham Turkiyaning mazkur hududda o‘z ta’sirini o‘rnatishining dolzarbligini belgilab bermoqda.

ASOSIY QISM

Sharq va G‘arb tadqiqotchilar hamda mutaxassislarining o‘rganilayotgan mavzusi bo‘yicha yozilgan adabiyotlarida muammoning u yoki bu jihatlarini oolib beriladi. Jumladan, Liviya inqirozi masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan turk olimi Abdulgani Bo‘zkurtning “Türkiye’nin libya olaylarinda izlediği politikayi realizmin insan doğasi, güç ve ahlak tanimlari üzerinden açıklamak” va Gökhan Tekirning “Libya’daki İç Savaşa Rus ve Türk Müdahalesi” maqolalari Turkiya-Liviya munosabatlarini o‘rganishda alohida o‘rin egallaydi. Unda Liviya inqirozining kelib chiqish sabablari va ularning nazariy asoslari, Turkiya va Liviya munosabatlarining zamonaviy jihatlari hamda uning Shimoliy Afrika va O‘rtayer Dengizi geosiyosiy jarayonlariga ta’siri va ushbu muammoni hal etish masalalari haqida atroflicha tadqiq etiladi. Turkiyaning Shimoliy Afrika siyosiy beqarorlikni hal etishdagi ishtiroki va mintaqaning geosiyosiy ahamiyatini o‘rganishda mahalliy tadqiqodchilar M.Muhammadsidiqov, Sh.Yovqochev, D.Madaminova, Y.Azimov hamda Gökhan Tekir, Hakan Demir, Nasif Ozkan, Cantürk Caner, Recep Yorulmaz kabi turk tadqiqodchilarning ilmiy maqolalari alohida o‘rin egallaydi. Maqolada qiyosiy-siyosiy, kontent va event tahlil usullaridan foydalanildi.

Turkiyaning Liviya inqirozida ishtirokini tahlil qilish uchun uning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaga nisbatan siyosatining umumiy tarixiy ildizlarini ko‘rib chiqish muhim. XVII-XIX asrlarda Shimoliy Afrika mamlakatlari Usmonli imperiyasi davriga borib taqaladi. Shimoliy Afrika davlatlari usmonli davlati davrida tashqi siyosiy masalalarda turk davlati orqali amalga oshirgan. Bundan tashqari, Shimoliy Afrika mintaqasi Usmonli qurollari kuchlari va harbiy dengiz kuchlari uchun muhim strategik hudud sanalgan. Misrdagi harbiy flot, Jazoirdagi harbiy kuchlar, Liviya va Tunisdagi siyosiy kuchlar imperianing harbiy-siyosiy salohiyatini belgilab bergen.[3] Turkiyada respublika tashkil etilganidan so‘ng to o‘tgan asrning 80-yillariga qadar mintaqada o‘zining siyosiy irodasini namoyon etmadni. 2000-yillarga kelib zamonaviy Turkiya

tashqi siyosiy strategiyasining yo‘nalishidan biri qilib Shimoliy Afrika konsepsiyasini ishlab chiqish ilgari surila boshlandi. 2001-yilda Turkiyada hokimiyatga kelgan AKP mintaqada Turkiyaning ta’sirini kuchaytirish va ma’nfaatlarini ilgari surib, bu borada amaliy qadamlarni tashlay boshladi. Hususan, 2010-yilda Shimoliy Afrika mamlakatlari Turkiya eksportining 20 foizini, importining 18 foizini tashkil etdi. Tijorat faoliyatining umumiy hajmi 2019-yilda 30% ga ko‘paydi. 2000-2019 yillarda faqat Turkiya quroq eksporti Shimoliy Afrika mamlakatlariga 55 milliard dollarni, Misrga 24 milliard dollar, Tunisga 11 milliard dollar va Liviya 7 milliard dollarni tashkil etdi.[4]

Turkiyaning mintaqasi siyosatiga ta’sir ko‘rsatish salohiyati Liviya sodir bo‘lgan so‘nggi voqealar bilan bevosita bog’liq. 2011-yilning 17-fevralidagi norozilik namoyishlari bilan boshlangan voqealar oktabr oyida Kaddafiyning o‘ldirilishi bilan yakunlandi, so‘ngra davlatni qayta qurish bo‘yicha kelishmovchiliklar kuch guruhlarining hokimiyatga bo‘lgan talablarini keltirib chiqardi. 2014-yil fevralida “Umumiyy Milliy Assambleya” saylovlari o‘tkazilmaganligi sabab norozilik bildirgan namoyishlardan ham foydalangan iste’fodagi marshal Xalifa Haftar, 2014-yil may oyida “Liviyaning manfaatlari” nomli aksiya boshlagan edi. Bu rivojlanish Liviya Tripolida va Tobrukda joylashgan ikki tomonlama tuzilmaning shakllanishiga olib keldi. BMT boshchiligidagi muzokaralardan keyin 2015-yil 17-dekabrda Liviya Siyosiy Kelishuvini imzolandi va kelishuv doirasida Milliy Murosa Hukumati tashkil etildi va Hukumat Tripolidagi boshqaruvni o‘z qo‘liga oldi. (Gökhan Tekir)

Turkiya Liviya Kaddafiy ma’muriyatiga qarshi BMT Xavfsizlik Kengashi qarorlarini bekor qilish tashabbusi bilan chiqdi. Erdo‘gan ma’muriyati bu yerdagiga rejimga qarshi har qanday NATO harbiy operatsiyani qo‘llab-quvvatlashdan bosh tortdi. Biroq, Turkiya bu siyosatda yakkalanib qoldi va Beng‘ozi qo‘zg‘oloni davrida Liviya ma’muriyati Turkiyaga nisbatan o‘z salbiy munosabatini bildirdi. Bu rasmiy Anqara pozisiyasining o‘zgarishiga olib keldi. Erdo‘gan agarda turk qo‘sishinlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy amaliyotlarga jalb qilish so‘ralmaganda Kaddafiyini kelishishga chaqirgan bo‘lardi. Tripoli qulashi bilan rejim barbod bo‘lganda Axmad Dovutog’lu o‘tish davri Milliy Kengashiga 300 million AQSh dollari yordam berishga va’da berdi. [5]

Turkiyaning Liviya mojarosiga aralashuvni Liviya davagi o‘zgaruvchan geosiyosiy muhitiga qarab harakterlanadi. Turkiya Kaddafiy rejimi bilan yaqin iqtisodiy aloqalarga ega edi. 2010 yil oxiriga kelib, 200 turk firmasi Liviya infratuzilma rivojlanishida ishtirok etdi. Ularning sarmoyalari taxminan 200 milliard dollarni tashkil etdi.[6] Shuning uchun dastlab, Turkiya Kaddafiyini ag‘darishni maqsad qilgan NATO aralashuviga qarshi chiqdi. NATO aralashuvni haqidagi da’volar paydo bo‘lganda Bosh vazir Rajab Toyyib Erdo‘gan Liviya aralashuviga qarshi chiqdi.[7] Biroq, Turkiya rejim o‘zgarishi yaqin ekanini ko‘rib, siyosatini o‘zgartirdi.

Keyinchalik, Turkiyaning G'arbiy Anadolusda joylashgan NATOning Izmir bazasida intervensiya qo'mondonligi berildi.[8] NATO aralashuvidan keyin Turkiya Liviyada siyosiy jarayonga kirishdi. Uning ustuvor yo'nalihlari Liviyaning hududiy yaxlitligi, Liviya xalqining tabiiy resurslaridan foydalanish huquqlari va tabiiy resurslarining bo'linmasligi prinsipi edi.[9] (Gökhan Tekir) 2014-yilda fuqarolar urushi boshlanganidan keyin Turkiya, Qatar bilan birga hukumat boshchiligidagi "Tong operatsiyasi"ni qo'llab-quvvatladi, Misr va BAA esa general Xaftar boshchiligidagi "Dignity operatsiyasi"ni qo'llab-quvvatladi. Shunday qilib, Liviyadagi fuqarolar urushi bu kuchlar o'rtasidagi proksi urushga aylandi.[10] Liviyadagi bu proksi urush Sharqiy O'rtayer dengizi havzasida gazning kashf etilishi bilan o'zgargan Sharqiy O'rtayer dengizi geosiyosat kontekstida baholanishi kerak. AQSH Geologiya xizmati ma'lumotlariga ko'ra, Levant havzasida qayta tiklanadigan 122 trillion kub fut tabiiy gaz resurslari mavjudligi aniqlangan.[11] Tabiiy gazni taqsimlash va iste'molchilarga yetkazishdagi mojarolar tasdiqlangan gazzdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilgan asosiy muammolardir.

Biroq, Liviyadagi tuzilma va tomonlar o'rtasidagi ziddiyat muhiti va ikki bo'linish tamoyili bugunga qadar saqlanib turibdi. Bu jarayonda Turkiya va Liviya o'rtasidagi munosabatlarda Sharqiy O'rtayer dengizi energiya siyosati bilan bog'liq kun tartibini belgilovchi o'zgarishlar yuz berdi. Avvalo, 2019-yilning 27-noyabr kuni Istanbul shahrida "Turkiya Respublikasi Hukumati va Liviya Davlati Milliy kelishuv hukumati o'rtasida O'rtayer dengizida dengiz yurisdiksiyasini cheklash bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi" imzolandi (Respublika hukumati qarori Turkiya va Liviya, 2019). Bu kelishuv Turkiyaning 2011-yilda Shimoliy Kipr Turk Respublikasi bilan imzolagan delimitatsiya shartnomasidan keyin Sharqiy O'rtayer dengizidagi ikkinchi delimitatsiya kelishuvindir. Shu kuni ikki tomon o'rtasida "Xavfsizlik va harbiy hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi" imzolandi (Xalqaro shartnama, 2019-yil), bu Turkiyaning Liviya Milliy kelishuv hukumatini qo'llab-quvvatlashini namoyish etdi.

Turkiya 2011-yilda Shimoliy Kipr Turk Respublikasi bilan o'z kelishuvini tuzdi. Kipr-yunon ma'muriyati esa Isroil, Misr va Livan bilan ikki tomonlama shartnomalar ishlab chiqdi.[12] Ushbu uch tomonlama ittifoq bir necha sammitlar o'tkazdi va ular "Sharq-Med" loyihasini ishlab chiqishni rejalashtirdilar. Yevropaning Rossiyaga qaramligini kamaytirishni maqsad qilgan Misr, Isroil, Kipr va Gretsya orqali Yevropaga gaz tashishi kerak bo'lgan kelishuvdir.[13] 2019-yilning yanvarida Isroil, Gretsya Kipr, Misr, Italiya, Isroil ma'muriyatiga asos solindi, ishtirokchi davlatlar o'rtasida energiya siyosatini muvofiqlashtirish va umumiyligi energiya bozorini o'rnatish bo'yicha Sharqiy O'rtayer dengizi forumi tashkil etildi.[14] Ushbu forum mintaqaviy hamkorlik institutiga aylantirildi. Ishtirokchi davlatlarning energetika vazirlari yaxshiroq va yaqinroq muvofiqlashtirish uchun ushbu institutning konstitutsiyasini e'lon qilish

ustida ishlamoqda.[15] Ushbu mintaqaviy ittifoqlarning tashkil etilishi Turkiyaning Sharqiy O‘rtayer dengizi energiya manbalarini rivojlantirish jarayonidan chetda qolayotganidan dalolat beradi. Sharqiy O‘rtayer dengizida yakkalanib qolgan GNA, fuqarolar urushidagi noqulay mavqeiga qaramay, Turkiya uchun yagona ittifoqchi bo‘lib qoldi. G‘arb davlatlarining ko‘magidan mahrum bo‘lgan GNA uchun Turkiya Haftar kuchlari bilan kurashish uchun munosib homiydir. Shuning uchun Turkiyaning GNAGa yordami yanada qat’iyroq bo‘lmoqda. Prezident Erdo‘gan 2019-yil sentyabrida bo‘lib o’tgan hukumat matbuot anjumanida Turkiyaning GNAGa harbiy yordam berishini tasdiqlab, “Turkiya Liviyani yangi Suriyaga aylantirmoqchi bo‘lganlarni hafsalasi pir bo‘lishi uchun barcha mavjud resurslarni safarbar qiladi” dedi.[16] 2019 yilning noyabr oyida Turkiya va Liviya o‘rtasida harbiy shartnomasi imzolandi. Bu kelishuv 2019-yil dekabr oyida ratifikatsiya qilingan edi. Bu kelishuvga ko‘ra, GNA talab qilganda Turkiya Liviyaga qo‘sish kiritishi mumkin edi.[17] Harbiy kelishuv bilan bir qatorda Turkiya GNA bilan dengiz chegaralarini delimitatsiya qilish bo‘yicha dengiz shartnomasini ham imzoladi. Bu bitim Turkiya va Liviya o‘rtasida 18,6 milya qit‘a shelfini tashkil qiladi. [18] Bu Turkiyaga Sharqiy O‘rtayer dengizi geosiyosatida o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini beradi. (Gökhan Tekir)

GNAning omon qolishi Turkiyaning Sharqiy O‘rtayer dengizi manbalari ustidagi huquqlari uchun juda muhim bo‘ldi. Turkiya GNAni har qanday holatda ham himoya qilishi kerak. Shu tariqa, Liviyadagi fuqarolar urushidagi ishtirokini kuchaytirdi. Tripolining qulashini oldini olish uchun Turkiya GNAGa qurolli yordamini oshirdi, dronlar, zirhli transport vositalari va raketalarni joylashtirdi hamda ushbu transport vositalarini boshqarish va liviyaliklarni o‘qitish uchun texnik xodimlarni yubordi. Tripoli aeroportida havo mudofaa tizimlarini o‘rnatdi. Ikkita turk harbiy kemasi GNA kuchlarini himoya qila boshladi.[19] Hozirgacha Turkiya Haftarning Tripolini egallahga bo‘lgan qat’iy urinishlariga qaramay, siyosiy aktor sifatida Liviyadagi GNAni himoya qilishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq, bu shiddatli aralashuvga qaramay, Haftar Liviyada yana bir kuch markazi bo‘lib qolmoqda. Shunday qilib, Liviya ikki qismga bo‘linishda davom etmoqda: Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan GNA va Misr, BAA hamda Rossiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan LNK.

Bu ikki tomon o‘rtasida kengayib borayotgan uzoqlashuvdan dalolat beradi. Bundan tashqari, Misr Liviya bilan 1100 km uzunlikdagi chegarasini zaif deb biladi. Jihodga qarshi va musulmonlarga qarshi birodarlik pozitsiyasiga ega bo‘lgan Xaftar Misr uchun tabiiy ittifoqchiga aylandi.[Dirsus and Eaton, Instability in Libya] GNAning Turkiyaning harbiy yordami bilan erishgan so‘nggi muvaffaqiyatlari Misrni faolroq pozitsiyani egallahga undadi. Prezident As-Sisi, GNAGa hujum qilsa, harbiy harakatlar haqida ogohlantiradi.[20] Bu borada BAA Xaftarga harbiy samolyotlar va yuk tashuvchilarni yetkazib, tezkor samolyotlarni joylashtira oladigan

inshootlarni qurdi. Televizion stansiyalar va veb-saytlar yaratish orqali Xaftarning obro'sini ham ko'taradi.[21] (Gökhan Tekir)

Bu borada Rossiya Liviyada o'zini moslashuvchan o'yinchi sifatida ko'rsatdi. U fuqarolar urushining turli ishtirokchilari bilan turli aloqalarini saqlab qoldi. Rossiya manfaatlарини himoya qiladigan siyosiy kelishuv Rossiyani Liviyaga allaqachon yuklangan resurslarini kengaytirishdan xalos qiladi. 2020-yil yanvar oyida Erdogan va Putin o't ochishni to'xtatish bayonoti e'lon qildilar, unda barcha tomonlarni harbiy harakatlarni to'xtatish va siyosiy yechim izlashga chaqiradi. Bu o't ochishni to'xtatish chaqirig'ini bu ikki davlatning fuqarolar urushidagi kelishuvlarining takrorlanishi sifatida ko'rish mumkin. Suriyaning g'arbiy qismida Rossiya va Turkiya Asad kuchlari va muxolifat kuchlari o'rtasidagi ziddiyatni yumshatish uchun ta'sir doirasiga da'veo qilishdi. Biroq, Liviyadagi mojaroni manipulyatsiya qilishda ularning ta'siri kamroq. Uchrashuvda yetti banddan iborat kelishuv faqat Al-Sarraj tomonidan imzolandi. Xaftar uni imzolashdan bosh tortdi. Berlindagi yana bir konferensiyada, faqat Misr bosimi tufayli Xaftar BMT vositachiligidagi muzokaralarda qatnashishga rozi bo'ldi. Fevral oyida tomonlar kelishuvga erisha olmagan. Haftar Tripolining taslim bo'lishini, turk qo'shinlarini olib chiqib ketishini va muhim harbiy bazalarni topshirishni talab qildi. Bunga javoban GNA Xaftar kuchlarini olib chiqib ketishni talab qildi. Bu jarayon Rossiyaning Xaftarni nazorat qilishdagi chegaralarini ko'rsatadi. Rossiya Xaftarga yollanma askarlarni yetkazib bersa-da, Xaftarning asosiy homiyлари Misr va BAA bo'lib, ular Xaftarning hujumini davom ettirishda uning harakatlariga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, Turkiya va Rossiya manfaatlari Liviyada turli tomonlarni qo'llab-quvvatlasa-da, bir-biriga mos kelishi mumkin. Turkiya o'zining ko'pchilik imkoniyatlarini geosiyosiy maqsadlari uchun GNAning omon qolishi uchun sarflamoqda, chunki uning Sharqiy O'rtayer dengizidagi gaz bitimlarida ishtirok etishi GNA bilan tuzilgan dengiz kelishuvining haqiqiyligiga juda bog'liq. Shuning uchun u har qanday holatda GNAning qulashini oldini olishga harakat qiladi. Boshqa tomonidan, Rossiya GNA tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan foydali shartnomalar orqali qurol va qurilish bitimlariga qo'shilishi bilan qanoatlantirilishi mumkin edi. Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo'gan Istanbulda Liviya bosh vaziri Fayoz as-Sarraj bilan uchrashuvda "Anqaraning ustuvor vazifasi Liviyada barqarorlikni o'rnatish, shuningdek, bu mamlakatning siyosiy birligi va hududiy yaxlitligini saqlash" [22] ekanini ta'kidlagan edi. (Gökhan Tekir)

XULOSA

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, hukumat almashinushi Liviyaga barqarorlik keltirmadi. U bir necha urug'lar, jangarilar, terrorchilar va qurolli guruhlar uchun jang maydoniga aylandi. Kaddafiy hokimiyatiga hujumni boshlagan yirik ta'sir kuchlari, u qulaganidan keyin deyarli hech qanday amaliy ish qilmadi. Kaddafiy davridagi harbiy general

Xalifa Xaftarning Liviyaga qaytishi vaziyatni yanada murakkablashtirib yubordi. Ko'p o'tmay, Liviyadagi mojaro Turkiya, Misr, BAA kabi mintaqaviy kuchlarning o'zaro kurashgan proksi urushga aylandi. Hozirda Liviyada qosh hokimiyatchilik mavjud bo'lib: Turkiya va Qatar qo'llayotgan Tripoli hukumati hamda Misr va BAA qo'llayotgan Tobruk hukumati. Turkiyaning Liviya fuqarolar urushidagi ishtiroki, Sharqiy O'rtayer dengizidagi geosiyosiy manfaatlari uchun juda muhimdir. Hududda topilgan tabiiy gazni qazib olish va uni tashish kabi masalalarda Sharqiy O'rtayer dengizidagi boshqa mamlakatlar tomonidan chetda qoldirildi. Bunday vaziyatda Liviyada GNA dengiz shartnomasini tuzishga tayyor edi, bu esa Turkiyaga o'z huquqlarini himoya qilish imkonini berdi. Shunday qilib, Turkiyaning Sharqiy O'rtayer dengizi huquqlari GNAning omon qolishi bilan bog'liq bo'lib qoladi. Sharqiy O'rtayer dengizidagi huquqlarini saqlab qolish uchun Turkiya qurolli yordam va harbiy maslahatchi guruhlarni taqdim etish orqali ishtirokini kuchaytirdi. Turkiya shu paytgacha Tripolining Xaftar qo'shinlari qo'liga o'tishini oldini olishga muvaffaq bo'lib kelmoqda. Yaqinda hududiy yutuqlarga erishganiga qaramay, GNA haligacha Haftarning Bing'ozi va Tobrukdag'i istehkomlarini zabit etolmayabdi. Uzoq davom etgan mojaro Liviyaning bo'linishiga yo'l ochmoqda. Liviyaning bo'linishi Turkiya va Liviya o'rtasidagi dengiz kelishuvini xavf ostiga qo'yadi, chunki Liviyaning sharqiy qismi hukumati Turkiyaga qarshi pozitsiyani egallagan taqdirda Turkiya uchun Rossiyaning Liviyadagi manfaatlarini aniqlash muhim masalaga aylanadi. Rossiyaning GNAg'a yordam berishi, bugungi Ukrainadagi siyosiy inqirozlar fonida yanada aniq bo bo'lib bormoqda. Turkiyaning bu masalada neytral pozitsiyani egallashi va Rossiya yagona vositachiliginibor necha bor taklif etishi ularning Liviyadagi manfaatlarini qaytadan ko'rib chiqishga undaydi. O'z manfaatlari ustunligini dahlsiz saqlab qolish, Turkiya uchun katta yutuq bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.Y.Azimov. Suriya inqirozining paydo bo'lishi tarixi va uning mintaqadagi siyosiy jarayonlarga ta'siri.
2. Добаев И.П. Исламский радикализм: генезис, эволюция, практика. –Ростов-на-Дону: СНК ВШ, 2003. –С. 143.
3. Gökhan Tekir, Russian-Turkish Involvement in the Civil War in Libya, *Türkiye Rusya Araştırmaları Dergisi* 3 (2020): 190-215.
4. Matteo Capasso et al., Libya Country Report (Berlin: Europe's External Action and the Duel Challenges of Limited Statehood and Contested Orders (EU-LISTCO, 2020)
5. Gökhan Tekir "Libya'daki İç Savaşa Rus ve Türk Müdahalesi" e-ISSN: 2687-35833 (2020): 190-215-s. <https://dergipark.org.tr/trad>
6. "Türkiye ve Libya Ekonomik-Ticari İlişkiler Bilgi Notu," Accessed 05.05.2020, <http://trabus.be.mfa.gov.tr/Mission>ShowInfoNote/157183>.

7. "NATO'nun Libya'da Ne İşi Var," Accessed 08.05.2020,
<https://www.ntv.com.tr/turkiye/natonun-libyada-ne-isi-var,6VO1xU5P>
8. "Komuta NATO'da, Hava Üssü İzmir'de" Accessed 07.05.2020,
<https://www.cnnturk.com/2011/dunya/03/25/komuta.natoda.hava.ussu.izmirde/611062.0/index.html>
9. Tankut Öztaş and Ferhat Polat, Turkey - Libya Relations: Economic and Strategic Imperatives (İstanbul: TrtWorld Research Center, 2020),
10. Gartenstein-Ross and Barr, Dignity and Dawn: Libya's Escalating Civil War, 8.
11. "Natural Gas Potential Assessed in Eastern Mediterranean," Accessed 19.11.2019,
<https://archive.usgs.gov/archive/sites/www.usgs.gov/.html>.
12. Enes Güzel, Turkey and the Energy Equation of the Eastern Mediterranean (İstanbul: TrtWorld Research Center, 2019), 6.
13. Janiki Cingoli, The New Energy Resources in the Centre- East Mediterranean: Potential Current and Future Geo-Strategic Consequences (Rome: Istituto Affari Internazionali, 2016), 4.
14. Nael M. Shama, "Gas and Conflict in the Eastern Mediterranean, Accessed: 05.05.2020,
<https://atlanticcouncil.org/blogs/energysource/gas-and-conflict-in-the-eastern-mediterranean/>
15. "East Mediterranean Gas Forum Transformed into a Regional Organization," Accessed: 03.05.2020, [http://www.energy-sea.gov.il/English-Site/Lobby/Articles/Pages/East Mediterranean Gas Forum transformed into a regional organization.aspx](http://www.energy-sea.gov.il/English-Site/Lobby/Articles/Pages/East%20Mediterranean%20Gas%20Forum%20transformed%20into%20a%20regional%20organization.aspx)
16. Öztaş and Polat, Turkey - Libya Relations: Economic and Strategic Imperatives
17. "Turkey's Parliament Ratifies Security Accord with Libya: Report," Accessed 05.05.2020, <https://www.reuters.com/article/us-turkey-libya-military/turkeys-parliament-ratifies-securityaccord-with-libya-report-idA>
18. Ali Bakeer, "Turkish-Libyan Alliance in Eastern Mediterranean: A Game Changer?," Accessed 06.05.2020, <https://english.alaraby.co.uk/english/indepth/2019/12/10/turkish-libyan-alliance-in-eastern-mediterranean-a-game-changer>
19. Turkey Wades into Libya's Troubled Waters (Brussels: International Crisis Group, 2020), 23.
20. Egypt's Sisi Says Turkey/Qatar-Backed Assault on Libya's Sirte Is "Red Line", Accessed: 24.06.2020, <https://www.thedefensepost.com>
21. Muhammadsiddiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: Qaqnus media, 2019. 124-b.
22. Muhammadsidiqov, M. (2019) Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Toshkent: Qaqnus media.

23. Turkiya Respublikasi hukumatining axborot xizmati,
https://www_aa.com.tr/ru/%D0%959